

## **BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNI DIDAKTIK XUSUSIYATLARI.**

*Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi*

*Abdullaeva Vazira Quronovna*  
[vaziraabdullayeva@34gmail.com](mailto:vaziraabdullayeva@34gmail.com).

*Telefon : 93-043-45-79*

**Annotatsiya:** Adabiyot soʻz sanʼati, soʻz adabiyotning quroli. Soʻz orqali maʼno mazmun tushuniladi. Badiiy adabiyot esa hayotning aksidir. Badiiy adabiyotda obrazlilik hayotiy vaqealiklarga asoslanadi. Obrazliliklar esa kitob oʻquvchini ezgulikka chorlaydi.

Ushbu maqolada oila davrasida hamda umumtaʼlim maktablarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish va qiziqtirish, bolalar adabiyoti namunalarining bolalarga ijobiy taʼsiri, ulardagi rivojlanish: nutq hamda dunyoqarashini va tasavvurini oʻsishi yuzasidan hamda bolalar uchun yozilgan badiiy adabiyot namunalarining didaktik tahlili xususida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** didaktika, didaktik adabiyot, oʻqish, nutq oʻstirish, dunyoqarash, adabiyot namunalari, tur va janr, ertaklar, kichik hikoyalar, rivoyat, masal, maqol. sheʼrlar.

**Аннотация:** Литература – искусство слова, слово – инструмент литературы. Смысл и содержание понимаются через слова. Художественная литература – отражение жизни. Образы в художественной литературе основаны на жизненных событиях. Образность призывает читателя к добру.

В данной статье говорится о приобщении и интересе детей к художественной литературе в семейном кругу и в общеобразовательных школах, о положительном влиянии примеров детской литературы на детей, их развитии: росте речи и мировоззрения и воображения, а также о дидактическом анализе примеров художественной литературы, написанной для детей.

**Ключевые слова:** дидактика, дидактическое чудо, чтение, развитие речи, мировоззрение, образцы литературы, вид и жанр, сказки, рассказы, повествование, притча, пословица. стихи.

**Abstract:** Literature is the art of words, the word is a tool of literature. Meaning and content are understood through words. Fiction is a reflection of life. Imagery in fiction is based on life events. Imagery calls the reader to goodness.

This article talks about the introduction and interest of children in fiction literature in the family circle and in general education schools, the positive impact of children's literature examples on children, their development: the growth of speech and

worldview and imagination, as well as the didactic analysis of examples of fiction literature written for children.

**Key words:** didactics, didactic wonder, reading, speech development, worldview, examples of literature, type and genre, fairy tales, short stories, narration, parable, proverb. poems.

### **1.Kirish.**

Jahon xalqlarining manfaati va dunyoda inson omiliga ehtibor tildan, ayniqsa milliy tildan unumli va o'ziga xos xususiyatlariga tayanib ish olib borishni taqozo etadi. Xalqning ma'naviy qiyofasi va tafakkurini rivojlantirishda til va adabiyotning o'rni beqiyosdir. Zero, milliy til va adabiyot xalqning mentalital qiyofasini vujudga keltiradi.<sup>1</sup>

Umumta'lim maktablarida va oila davrasida bolalar bilan ishlashda badiiy adabiyot va so'z san'ati katta o'rin egallaydi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi bolalarning dunyoqarashini yanada rivojlanishida, atrof muhitni tanishda, insonlar xarakterlarini o'rganishda hamda tabiyatga bo'lgan mehrini oshirishda alohida o'rin egallaydi, shu bilan birga bolalarni yoshlikdan badiiy adabiyot bilan tanishtirib borish jarayonida o'ta muhim hisoblangan axloqiy tarbiyani (didaktik xususiyatlarni) yetkazilishida o'ta muhim sanaladi.

Shu sababli qadimda bolalarga badiiy adabiyot namunalarini - xalq ertaklari, she'riy to'plamlar, kichik - kichik ibratli hikoyalar o'qib berish an'anaga kirgan, otanonalar farzandlariga kitob sovg'a qilishganlar.

Badiiy adabiyot namumalarining didaktik xususiyatlarini aks etirishda axloqiy-ta'limiy, ilmiy - falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi.

Didaktik adabiyot ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. G'arb va Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida didaktik adabiyot uzoq tarixga ega.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning dastlabki yirik namunalari Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» asarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» dostonlari va bir qator pand-nasihat ruhidagi asarlar mavjud.

Bolalarni yoshlikdan badiiy adabiyot bilan tanishtirib borish natijasidan bolalarda axloqiy ta'lim-tarbiya shakllanib boradi, dunyoviy hodisalar va tabiat hamda insonlarning fazilatlarini haqida tushunchalarga ega bo'lib boradi. Shuning uchun badiiy adabiyotning ijtmoy hayotdagi eng muhim vazifasi hayot haqidagi haqiqatni aks ettirishdir.

<sup>1</sup> H.Sh.Nurmamatovna.Fil.F.diss...avtoreserati,Farg'ona,2021,2-bet

Yurtimizda qadimdan bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirib borish an'anaga kirgan. Bolalarga o'qib berilgan badiiy asarlardagi voqealar tassurotlari bilan yashaydilar va ular turli sarguzashtlarga boy bo'lgan badiiy asarlarni eshitishni yaxshi ko'rgandilar. Bevosita, badiiy obrazlarning mardligiga, jasurligiga taqliq qiladi, ularning ijobiy tomonlarini o'zlarida mujassamlashtira boradi.

Bu borada bolalar uchun yozilgan adabiyot namunalari asosan o'zining qiziqarli mazmunli, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarni o'ziga jalb qiladi.

Badiiy adabiyot namunalari yosh kitobxonlarning barchasiga didaktik (tarbiyaviy) ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyotning qimmati bolaning ta'lim-tarbiya olishida va har tomonlama mukammal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishidadir. Badiiy adabiyot namunalarning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarga didaktik xususiyatga egadir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiati, kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlari haqida hikoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, histuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot namunalari bolalarni hayajonlanishga, asar qahramonlari taqdiri to'g'risida qiziqishiga, ular borasida o'ylashga undaydi. O'qib berilgan badiiy adabiyot namunalri bolalarda predmatlarga bo'lgan tasavvurini, yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri - noto'g'ri kabi hislatlarni shakllantiradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik kabi fazilatlarini shakllanishiga, estetik jihatdan tarbiyalanishiga katta ko'mak beradi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqiyliigi, til unsurlaridan o'rinli foydalanishi va voqelikni ifodali o'qilishi yosh bolalarga yoqadi. Badiiy adabiyot namunalari orqali so'z qudratini his etadilar, xalq ertaklari, hajman qisqa hikoyalar, xalq qo'shiq hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Topishmoq va tez aytishlar orqali esa bolalarning tiyran fikrlashga va zukkolikka undaydi. Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'sadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirib borishda xalq og'zaki ijodining namunalari hisoblangan ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plarini xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya, axloq-odob mazmuniga ega bo'lganlarini tanlab olinadi.

Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadi, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchilikka, makrxiylaga nisbatan salbiy fikrga ega bo'ladilar.

Bolalar uchun yozildan adabiyot namunalari bolalarning yoshiga mos tarzda va ularga tushunarli til qurilmalaridan foydalanib bayon qilinishiga alohida e'tibor qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishirib borish orqali ularning axloqiy fazilarlari shakllanib boradi. Qadimdan yurtimizda komil inson tarbiyalash masalasi o'ta dolzarb masala bo'lgan.

## 2.ADABIYOTLAR TAHLILI

Jamiyat doimiy rivojlanish jarayonida uni to'xtatib bo'lmaydi. Jamiyatning doimiy rivojlanib borishi inson omillining yanada yuksak marralarga erishishga undaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya berishda badiiy adabiyotlarni o'rni beqiyos. Bolalarni har tomonlama yuksak, bilimli bo'lib kamol topishida oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridanoq kichik-kichik hikoya, she'rlar va sarguzashtli ertaklarning didaktik xususiyatlarining ta'siri o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu borada bir qator soha mutaxassislari tomonidan ilmiy o'rganishlar olib borgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy etilgan 5 ta muhim tashabbusning to'rtinchi bosqichi bevosita, yoshlarning ma'naviy yuksalishi, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirildi.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning dastlabki yirik namunalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» dostonlari kabi pand - nasihat ruhidagi asarlar mavjud.

Mazkur asarlarda adolatparvarlik, ilmu ma'rifatli bo'lish, axloq-odob haqidagi qarashlar, pand-nasihatlar bayon qilingan.

Didaktik adabiyotdan ijtimoiy, falsafiy, ilmiy qarashlarni ommalashtirish vositasi sifatida ham foydalanganlar.

Ma'lumki, "didaktika" so'zi ilmiy kitoblarda qadimgi yunon tilidan olinib, "o'qitish", "o'rganish" degan ma'noni bildirishi to'grisida ma'lumotlar mavjud.<sup>2</sup>

Mazkur atamani fanga kiritilib, uning nazariyasi haqida ilk bor kitob yaratgan pedagog chexiyalik Yan Amon Komenskiyning behad o'rni katta bo'lganligi pedagogika kitoblarida ko'p marotaba ta'kidlangan.

Adabiyotshunoslikda didaktik adabiyot tushunchasi mavjud bo'lib, bunda asossan pand-nasihat tarzidagi adabiy asarlar kiritiladi. Didaktik adabiyot axloqiy -ta'limiy, Ilmiy-falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi. Didaktik adabiyotning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va tabiya, ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador

<sup>2</sup>R.A.Mavlonova.N.Rahmonqulov va boshqalar,Umumiy pedaagogika. Toshkent.2018, 69-bet

usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta.

Uzoq vaqt mobaynida siyosiy qarashlarga didaktikaning taraqqiyot yo'nalishini bog'lashgan, lekin mazkur ta'limot sobiq tuzimning siyosiy qarshlari bilan bog'lash ilmiy jihatdan tog'ri kelmasligini hayotiy haqiqatning o'zi ko'rsatib berdi.

Keyingi vaqtda, insonning kamol topishi falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Chunki olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatlari, insonning bilish imkoniyatlari, ma'rifatning shaxs kamolotidagi, o'zini anglash borasidagi o'rni singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi.

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega.

Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

Badiiy adabiyotda aks etgan voqealar natijasida bolalarda axloqiy tarbiya shakllanib boradi.

Ma'lumki, har bir xalqning oz afsonaviy qahramonlar, pahlavonlari bo'ladi. Bu borada o'zbek xalq og'zaki ijodining nayob durdonasi bo'lgan "Alpomish" dostoni millatning o'zligini namoyon eradigan, avlodlardan avlodlarga o'tib keladigan qahramonlik haqida bayon qilinadi. "Alpomish" dostoni asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Unda o'zlkni saqlash, el-yurtning bag'rikengligi, matonat oliyjanoblik, vafo, sadoqat kabi axloqiy fazilatlar va vatanparvarlik kab tuyg'usini o'zida namoyon etadi.

Axloq tarbiyasi bevosita oilada va ta'lim jarayonida shakllanib boradi. Alisher Navoiy bu borada: ***"Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlidir"***, -deya fikr bildiradi.<sup>3</sup>

Bolalarning yoshi kattalashgan sari badiiy-ijodiy qobiliyati rivojlana boshlaydi. Ular mustaqil tarzda topishmoq, ashullalar, ertaklar, she'rlar aytishga qiziqqa boshlaydi. Bolalar badiiy asar qahramonlari xatti-harakatiga juda katta his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo asardagi qahramonlar xulqidagi yashirin sabablarni ular anglay olmaydilar. Biroq ular badiiy ijodkorlikning rivojlanishi davom etadi. Bolalarda badiiy did va dunyoqarashning shakllanishida kitoblarning muhim ahamiyati

<sup>3</sup> N.Karimova . Maktabgacha pedagogika, Toshkent, 2012, 70-bet.

mavjud. Kitoblar nafaqat bolalarning yoshiga xos, balki mavzu va mazmuni bilan, bayon qilish usuli bilan hamda o'ziga xos tarzda bezatilganligiga e'tibor qaratish muhimdir.

Maktangacha ta'lim yoshidagi kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga "o'qib" ("so'zlab beradi") berishi bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi.

Bolalarga mo'ljallangan bir qator adabiyot namunalari ona Vatanga muhabbat, do'stlik, birodarlik, ota-onaga nisbatan mehribonlik kabi mavzularda bayon qilinadi, bu kabi adabiyot namunalari bolalarga tushunarli bo'ladi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktika (ta'lim-tarbiya berish)ning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud.

Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega.

Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Gulhaniy, Hamza, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogikasi taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi.

Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

Ayniqsa, o'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakatining o'rni beqiyosdir. Xususan, M. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi.

XIX asr oxirlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning qadr- qimmatini va o'zligini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'qligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar.

Buyuk pedagoglar bevosita o'quvchining ta'lim-tarbiya berishda ko'plab badiiy adabiyotlar, pedagogik ilmiy darslik va qo'llanmalarining orni beqiyos ekanligini ta'kidlashganlar.

Bevosita badiiy adabiyotning didaktik xususiyati deganda -badiiy ifodalangan pand-nasihat tarzidagi adabiyot tushuniladi. Didaktik adabiyotlarda axloqiy-ta'limiy, ilmiy-falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi.

Badiiy adabiyotda didaktik xususiyatlarning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Sharqda komil inson tarbiyasi yuksak pog'onada turgan. Shuning uchun bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda tarixiy izchillikka egadir.

Axloqiy tarbiyaning ilk namunalari o'zbek mumtoz adabiyotidagi didaktik qarashlarning dastlabki yirik namunalari Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" dostonlaridir. Bu asarlarda o'quvchilarning adolatli, ma'rifatli, axloq-odob haqidagi qarashlari, pand-nasihatlari she'riy shaklda bayon etilgan.

XIX asr oxirlarida bir qator adiblar ijodida ilmiy bo'lish va go'zal xulq-atvoriga ega bo'lish to'g'risida pandnasihatga alohida ahamiyat berilgan. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda didaktik qarashlarga alohida e'tibor berish juda muhimdir.

### **Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida didaktik qarashlarni aks ettirilishi.**

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari XI asr eng nodir namunasi. Mazkur asarda ma'naviy-axloqiy masalalar badiiy talqin qilinadi. Asarda turkiy xalqlar madaniyati, ilm-fani, turmush tarzi, qadriyatlari, irf-odatlari xususida ma'lumot berib boradi. O'zbek adabiyotining eng nodir asarlarida bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ramziy obrazlar talqini asosida yaratilgan. Asarni "Qutadg'u bilig" deb atalishining ma'no mazmuni ham o'ziga xos ahamiyatga ega. "Qutadg'u bilig" –qut(saodat,baxt) keltiruvchi bilim demakdir. Asarni maydonga kelishi davlarni odilona boshqarishiga turrki beradi. Asada to'rtta bosh qahramonning o'zaro ijtimoiy-siyosiy voaelik qatnashchisi sifatida ishtirki asosida qurilgan. Asarda muallif "Davlat Adolat va Aql bilan boshqarilmog'i kerak" degan fikrni ramziy shaklda ifodalagan.<sup>4</sup>

Asar 73 bob, 6520 baytdan iborat, asosan to'rtliklardan iborat, biroq aruz vaznida yozilgan baytlar ham mavjud. Mazkur asarda keltirilgan voqeliklar axloqiy ma'naviy fazilatlarining hayotiy hikoya-tasvirlar, mantiqiy tahlil-xulosalar orqali berilishi,

<sup>4</sup> V.Q.Abdullayeva. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining til xususiyatlari, unda frazeologik iboralarni qo'llanilishi tadqiqi. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS, www.wordlyknowledge.uz, volume:3, Issue:1, 2023, 1-b.

birinchidan, muallif nuqtayi nazarini ifodalashga imkon beradi, shu tariqa uni qanday g 'oyani ilgari surayotganini aniq bilib olish mumkin. Misol tariqasida, Yusuf Xos Hojib asarida "Qutadg 'u bilig- baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim demakdir" deb ataydi

**Bu haqida:**

Kitab ati urdum "Qutadg'u bilig"  
Qbtadg'u, o'qug'liqa tustu elig.

**Mazmuni:**

Kitob otini "Qutadg'u bilig' " deb qo'ydim,  
O'quvchiga baxt keltirsin, qo'lidan tutsin.<sup>5</sup>

Mazkur asarni tuzilishiga alohida e'tibor qaratisa, nasriy usulda tangriga hamd,qisqa nasriy hikoyalardan, so'ngra 77 baytdan iborat nazmiy muqaddima o'z ichiga oladi.

Asar kichik syujet bilan boshlanadi. Ya'ni Qutadg'uning ilmga, ma'rifatga muhabbatli, olim va fozil odamlarni to'plab, ularga homiylik qilayotgan Oyto'ldi uning huziriga yetib kelishidan boshlanadi. Oyto'ldi vafotidan keyin uning o'g'li O'gdulmish asar maydoniga chiqadi.

Muallif asarda bilim va zakovat tengi yo'q ulug'lik ekanligini, kishilar shular tufayli, g'aflatdan uyg'onishinni, barcha orzu-tilaklariga, ulug'likka erishishini, ro'shnolik topib, dunyo ishlaridan xabardor bo'lishini uqtiradi, bilimsiz kishi misoli bir xasta deydi va o'z dardini davolashda bilim va zakovatni o'rganib borish o'ta muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Uqushqa, biligka bu tilma til,  
Yaruttachi erni yo'riq tilni bil

Kishig til yog'irlar, bulur qut kishi,  
Kishig til ujuzlar,yarir er bashi

**Mazmuni:**

Zakovat, bilimga kalitdir bu til,  
Yortyguvchi erni ravon tilni bil.

Kishin til ulug 'lar, topar qut kishi,

<sup>5</sup> Q.Karimov.Qutadg'u bilig. Fan nashriyoti, T,1971,B-9.



Kishin til tubanlar, yorilar boshi. <sup>6</sup>

Bilgizka davlat yarashsa kelib,  
Biligligka ertuk yarashur tegib,  
Biligsiz bila tursa davlat qadi,  
Biliglig bila turg'a teng - tush ko'rib. <sup>7</sup>

### **Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq” asarida didaktik xususiyatlarni aks ettirilishi.**

XII asrga oid mo'tabar asarlaridan biri Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq” asaridir. Muallif haqida ilmiy adabiyotlarda kozi ojiz bo'lgani haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Ahmad Yunakiyning «Hibbat-ul haqoyiq» («Haqiqatlar sovg'asi») asari ta'limiy-axloqiy yo'nalishda yozilgan bo'lib, bilimlilik, adolat, saxovat, muruvvat kabi xislatlar ulug'lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi va ma'naviy-axloqiy qarashlarini bayon etib, didaktik adabiyotni bo'yitdi.

Asarning nomi “Haqiqatlar sovg'asi” degan ma'noni bildirgan. Asar aruz vaznida yozilgan, 14 bob, 256 bayt, 512 ta misradan iborat, hazal va to'rtlik shaklida yozilgan. Asar sharq an'anasiga ko'ra allohga hamdu sanolar bilan boshlangan. Bu sharq adabiyotining eng asosiy kirish qismini tashkil qilgan.

Muallif inson kamoloti uchun muhim bo'lgan aqliy va axloqiy qoida va talablarni o'zida mujassamlashtirgan «Hibatul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o'ziga xos tizimini yaratgan. Bunda u insonni kamolga yetkazishning eng muhim va asosiy mezonlaridan biri–insonning bilimga ega bo'lishi, ya'ni unga aqliy tarbiya berish, deb bildi. So'ng ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazuvchi so'z odobi, insondagi halollik, rostgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, samimiylik, qanoat, chinakam do'st bo'lishni eng muhim insoniy xislatlar sifatida ta'riflaydi va bularga qarama-qarshi bo'lgan jaholat, baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, takabburlik, zolimlik, shoshqaloqlik kabi illatlarni qoralab, ularning yomon oqibatlarini ko'rsatadi. «Hibbat- ul haqoyiq» asari xalqni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy kamolotga yo'llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, ochko'zlik, baxillik, jaholatni ilm-ma'rifat bilan bartaraf etishni da'vat etadi.

Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lganligi sababli ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid yaratilgan

<sup>66</sup> Q.Karimov.Qutadg'u bilig. Fan nashriyoti, T,1971, 20-bet

<sup>77</sup> Q.Karimov.Qutadg'u bilig. Fan nashriyoti, T,1971, 21-bet

asarlarning asosiy o'zagi sanalgan. Bu g'oyani, ya'ni insonparvarlik g'oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta'lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo'yilgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ladi. Mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi.

**“Hibbat-ul haqoyiq” asaining birinchi bo‘limi ilm manfaati jaholatning zarari haqida to‘xtalib o‘tadi.**

Bilim haqda soz'lay. Ey dost, quloq sol,  
 Ilmiga yaqin yur, undan ibrat ol,  
 Bilim bilan ochilur saodat yo'l,  
 Baxt yo'lini izla, dostim, baxtli bo'l.

Bilimli kishilar tilla dinordur,  
 Ilmsiz, johil odam el ichra xordur.  
 Bilimli xotinlar erkak bilan teng,  
 Ilmsiz erkakni misli xotin deng<sup>8</sup>

Asarda imli bo'lishni targ'ib qilish bilan birga, johillikdan tiyilish xususida ham bir qator pand-nasihatlar keltirilgan:

Oqil ishin bilib qilar, o'kinmaydi,  
 Nodon kabi pushaymonda so'kinmaydi.  
 Qay ishini bilimsiz o'ng, deb o'ylaydi,  
 Birini bitirmas, ishi unmaydi.

Oqil nimalarni so'zlar, quloq sol,  
 Odob bshi tildan, shuni bilib ol.  
 Tilingni nojo'ya so'zdan mahkam tut,  
 Tishlaring sinmasun, sokishni unut.<sup>9</sup>

<sup>8</sup> Ahmad Yugnakiy. Hibbat-ul haoyiq, www.ziyo.uz.com.kutubxonasi, 5-bet.

<sup>9</sup> Ahmad Yugnakiy. Hibbat-ul haoyiq, www.ziyo.uz.com.kutubxonasi, 7-bet

**Pand-nasihat borasida adib har bir fazilatga alohida urg'u berib chiqadi.**

Ayo, do'st, bilimli izin izlagil,  
 So'z aytsang, o'ylagil, bilib so'zlagil.  
 Maqtasang, madh ayla saxiy kishini,  
 Baxil o'tkir yoy o'qin tezlagil.  
 Tillarda saxiyning maqtovi takror,  
 Saxovat aybibgni yuvadi mingbor.  
 Saxiy bo'l, el senga la'nat aytmasin,  
 La'nat qo'lin to'sar saxovating yor.

Saxovat tosh ko'ngil dilin eritur,  
 Saxiy murodiga albat erishur.  
 Baxilni maqtovxhi til topilmahay,  
 Saxiy madhini barcha eshitur.<sup>10</sup>

**Abdulla Avloniyning pedagogik asarlarida didaktik xususiyatlarni aks ettiriishi**

Abdulla Avloniy publisist, shoir, darमतurg sifatida bir qator asarlar yozib u orqali hayotiy haqiqatlarni aks ettrish bilan birga u ta'lim-tarbiya sohasiga alohida o'z faoliyati bilan asos solgan buyuk pedagog hisoblanadi.

XX asar avvalida yangi usuldagi maktablarni joriy qilinishi va mazkur maktablarga xos bo'lgan zamon talabiga talab bera oladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish, yangi texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish ko'zda tashlana boshladi. Buning uchun maktablarning nazariy asoslarini yaratsih, yangi zamonaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o'qituvchi va o'quvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mazkur buyuk maqsadni amalga oshirishda Abdulla Avloniy olib borgan pedagogik faoliyati beqiyosdir.

U faoliyati davomida zamonaviy pedagoglarni, metodik olimlarni tarbiyalab yetishtirdi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchini ifodali o'qishga o'rgatish adabiy o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'rgazmali vosita vazifasini bajaruvchi ifodali o'qish natijasida asar voqealari, g'oyasi o'quvchilar ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Abdulla Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e'tibor bergan bo'lsa, asarni tushunib o'qish, ifodali o'qish, badiiy asarni his qilishga shunchalik ko'p diqqat qiladi.

<sup>10</sup>Ahmad Yugnakiy. Hibbat-ul haoyiq, www.ziyo.uz.com.kutubxonasi,11-bet

Abdulla Avloniy ifodali o'qishning bir necha turini ishlab chiqdi. Ulardan biri o'quvchilarning xo'r bo'lib o'qishlarini o'qituvchi A.Avloniy dirijyor kabi boshqarib borgan. Hur fikrlar bilan ma'rifat maydoniga chiqqan mutafakkir o'z darslarida ifodali o'qishning ibtidoiy shakllari bilangina cheklanib qolmadi, shu bilan birga, uning yangi, zamonaviy shakllarini ishlab chiqdi.

Uning bu faoliyati maktablarda xo'r, ifodali o'qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o'qish sohasidagi bunday faoliyati Toshkentning "usuli qadim" va "usuli jadid" maktablarida qo'llanila boshladi.

Yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo'ladigan qo'llanmani joriy qilish o'ta muhim edi. Bu borada Abdulla Avloniy Turkiton jadidlarining rahnomasi bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning ilg'or taklif va tavsiyalariga asoslanib "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini yaratdi.

Abdulla Avloniy faoliyatida odob-axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ta'lim berish metodlariga alohida e'tibor berishini ko'zda tutadi, ularni bolalar ta'lim - tarbiyasiga o'rgatishi kerak bo'lgan vazifasini muallimlar zimmasiga yuklanishini alohida ta'kiqlab o'tadi.

Bu borada, Abdulla Avloniyning muallimlarga: **"Turkiy guliston yoxud axloq"** asarining maqsadini to'la ifodalaydi: *"Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabi dur"*, deb tavsiya beradi.

Abdulla Avloniy ta'lim oluvchilarni mukammal odob-axloqiy tarbiyaga ega bo'lishlari uchun **"Turkiy guliston yoxud axloq"** asarini buyuk mutafakkir Shayx Muxlisiddin Sa'diy (Sheroziy) ning **"Guliston"** asariga nazira sifatida yaratilgan.

Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: *"Tarbiya" – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur"*.

Abdulla Avloniyning **"Turkiy guliston yoxud axloq"** asari 2 marta, 1913 va 1917-yillarda bosmadan chiqdi. Bu asarda inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq zamondoshlar e'tibori inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga jalb etilgan. Inson hech qachon yomon

bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati juda muhimligini ta'kidlanadi.

Jamiyatda farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega ijtimoiy ishdur.

U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, *“Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”* deb alohida tarbiya masalasiga urg'u berdi.

Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiya berishda 1909-1917 – yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun *“Birinci muallim”*, *“Ikkinchi muallim”*, *“Turkiy guliston yoxud axloq”* va *“Maktab gulistoni”*gari ko'plab dasliklar yaratib amaliyotda tadbir qildi.

Abdulla Avloniyning *“Birinci muallim”* nomli asari 1917 yilda nashr qilingan. Bu darslikda alifbo o'rganilganidan so'ng o'qish uchun berilgan axloqiy hikoyalar va ibratli she'rlardan tashkil topgan. Darslik Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasida bosib chiqarilgan.

Mazkur asarda 63 ta hikoya va bitta yakuniy so'z o'rnida **“Bir ikki so'z”** nomli yakuniy so'zdan iborat matnlardan tashkil topgan. Muallif asardagi hikoyalarni maktabning yuqori sinf hamda adabiyotga qiziquvchi barchaga taqdim qilinganiga bayon qilib, shu bilan o'zining to'rt qator she'ri orqali pedagogik qarashlarini bayon qilishga erishgan.

Har kun o'luram shomg'acha men g'amga giriftor,  
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.  
Hech kimsa emas bu men ahvolima voqif,  
Men xastayam millatim o'lmish nega bemor. <sup>11</sup>

Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng qamrovda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. Mohir pedagog tarbiyani bolaning sog'lig'i haqida alohida e'tiborli bo'lishni ta'kiqlaydi. Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chadi. Jism bilan ruxning uzviy birligi haqida bayon qiladi. *“Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordam bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ngli tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur”* deb o'xshtma qilish bejiz emas. Tarbiyaning o'ta muhim masala ekanligini tushuntirishga harakat qiladi.

Abdulla Avloniy **“Turkiy guliston yoxud axloq”** asaridan **pand-nasihati mazmunidagi** hikoyalar mazmuni bolalarni axloqiy tarbiyani o'zida yoshlikdan singdirib borushni targ'ib qiladi.

<sup>11</sup> A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent,1917.1-bet

Xususan, “**Axloq**” nomli maqolada “*Insonni yaxshilikg ‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyeur. Axloq ilmni o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, jinob Haq na uchun xalq qilganin. Yer yuzida nima ish qilmak uchun yurgan bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qinnatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqrar qilub tuzatmakg ‘a sa ‘y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir. Rasul akram nabiiy muhtaram afandimiz: “Mezon tarozusiga qo‘yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og‘irroqi yo‘qdur. Mo‘min banda yaxshi xulq sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro‘za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar”, -demishlar” deya bayon qiladi.*

**Shu bilan suhbu bayonotni she‘riy parchalar bilan izohlashga harakat qiladi.**

So‘ylasang so‘yla yaxshi so‘zlardan,  
 Yo‘qsa jim turmoqing erur yaxshi.  
 O‘ylasang yaxshi fikrlar o‘yla,  
 Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yaxshi.  
 Ishlasang ishla yxshi ishlarni,  
 Yo‘qsa bekorligi erur yaxshi.

Ayniqsa, “**Tarbiya**” nomli maqolada bolalarning tarbiyalashda eng muhim qirralarni ko‘rsatishga harakat qilinadi.

Xususan, “**Tarbiya - “Pedagogiya**”, ya‘ni bola tarbyasining fani demakdur. Imi axloning asosi tarbiya o‘ldug ‘ndan shul xususida bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodat uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xalqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “**yaxshi xulq**” degan davoni ichidan, “**poklik**” degan davoni ustidan berub, katta qilmoqg ‘i lozimdur”, deya tarbiya olishda eng avvalo sog‘liq salomatlikka alohida e‘tibor berish masalasini qo‘yadi. Bu borada bolalarni sog‘lig‘i borasida “**Badan tarbiya**” nomli maqolaning alohida orni mavjud.

“Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog ‘i insonga tng kerakli narsadur. Chunki, o‘qumoq, o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz

*jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar...*"<sup>12</sup> deb ta'kiqlaydi.

“**Turkiy guliston yoxud axloq**” asarida “**Yaxshi xulqlar**” va “**Yomon xulqlar**” tasnif qilib o'qituvchi va o'quvchiga odob-axloq to'g'risida ta'lim beradi.

“**Yaxshi xulqlar**” maqolasida “**Yaxshi xulq**: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqiyosi nafs, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi loson, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur” deya, har bir yaxshi xulqlarga kirgan fazilatlariga izoh berib o'tadi. Shu bilan birga inson yaxsh xulq egasi bo'lishi lozimligi to'g'risida pand-nasihat qiladi.

Yaxshi birla yursa, har kim maqsadi hosil bo'lur,  
Yursa nadonlar ila, kun borib qotil bo'lur.  
Kattalar qilgan nasihatni kichikalr olmasa,  
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur.

Shu bilan birga “**Yomon xulqlar**” haqida ham tasnif berib shunday bayon qiladi: “*Insonlarni saodat abadiyatdan mahrum qiladigan, janob Haq qoshida va xalq nazrida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur.*”<sup>13</sup>

Qo'rinib turibdiki, mazkur asar boshidan oxirigacha kitobxonga didaktik xususiyatlar to'g'risida bayon qiladi. Bu haqida asar yakunida Abdulla Avloniy quyidagicha izoh qoldirib ham o'tadi:

*“Ban bu asari nochizonami bir necha muallim brodarlarining iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdullo va mina ikkinchi tab 'ana-da muvaffaq o'ldum. Chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo'qligi afroqi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasida o'ldigimdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shunning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'gida adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi o'g'ir ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaraq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim.*

*Va shul maqsadga har bir so'zning oxiriga, ikki-uch band she'r ham yozdim va bu yozgan she'rimning orasida ba'zi arabiy, forsiy she'rlarning tarjima va mazmuni ham ko'rilur. Maorifparvar muallim birodarlarim meni bu asari ojizonamni iltifotsiz*

<sup>12</sup> A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent,1917.3-bet

<sup>13</sup>A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent,1917.25-bet

*qoldurmay, bu xizmati nochizonamni ko'zdan kechurub va bundan so'ng ham banim qalamim ila nashr o'ltirib kitoblarni lutfan maydoni ta'lima qo'yimoq ila barobar tabiiy o'lan nuqsonlarini tanbeh va tanqid qilishda himmati maorifparvaronalarini bandadan darig' tutmasalar edi".*

### **Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibus -soniy" asarida didaktik xususiyatlarni aks ettirishi**

Munavvarqori Abdurashidxonov maktab sohasida alohida xizmatlari mavjud. Uning "**Adibus soniy**" nomli ta'lim-tarbiya bersih borasida alohida to'xtalgan asari mavjud.

Mazkur asar ham didaktik ruhda yozilgan asar bo'lib, unda muallifning o'z tili orqali "*Makotibi ibtidoiya shogirdlarina alifbodan so'ng o'qumak uchun mumkin darajada ochiq til va oson tarkiblar ila yozilmish qiroat kitobi*" ekanligini bayon qiladi.<sup>14</sup>

Asar sharq an'alariniga tayangan holda "**Hamd**" bilan boshlangan. Shundan so'ng Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari kabi inson uchun foydali va salbiy bo'lgan hislatlar yuzasidan bayon qilinadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov "**Adibus-soniy**" asarda quyidagi mavzular asosida maqolalar mavjud: Salovot, **Axloq darslari:** Odob, Iskandar Zulqarnayn, Lofchi, Ikki yo'ldosh, To'g' 'ri javob, Pand, Nazm, Jo'g'rofiya, Hajjoj ila darvesh, **Axloq darslari:** Tarbiya ili bola, Shafqat va marhamat, Ali va Vali, Isrof, baxl va saxovat, Maktab, Iskandar ila Arastu, Oqumoq, Yozmoq, Ahmad ila onasi, Ota-ona, Bola qurboni, Birodarg'a muhabbat, Ko'r ila do'xtir; **Faniy darslar:** Yil (sana), Oy yili oylari, Quyosh yili oylari, Asrlar, Fasllar, Kunlar; **Axloq darslari:** Yo'g' 'onchilik, Yo'lg' 'onchi bola, Yo'lg' 'onchilik zarari, To'g' 'rilik, Orif ila Sodiq, Hayvonlar, Qushlar, Qurbaqa, Suyaksiz hayvonlar, Hayvonlarning farosat va maishatlari, Insonning basjqa hayvonlardan farqi, Hayvonlarning insong'a foydalari, Baxilning bog'i ko'karmas, Molning qadrini saxiy bilur, O'runli saxovat, **Fanniy darslar:** Havo, Bulut, So'ng.

XIX asr boshlarida o'lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa mahalliy tanazzul tomon yuz o'g'irganini ko'rgan Munavvarqori Abdurashidxonov mazkur borada ijtimoiy tubanlikni yechish borasida ish olib bordi.

Bu borada u maktab va madrasa ishini tubdan isloh qilish kerakligini tushunib yetadi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1901 yil Toshkent shahridagi maktablarda yangi maktablarni ("usuli jadidiya") ochadi. Mazkur maktablarda ta'lim olishda faqat diniy bilimlar bilan cheklanmay, dunyoviy fanlarni ham dastur asosida o'qilishini joriy qilishni tizimga kiritdi. 1914-1916-yillarga kelib Turkistondagi ko'pgina maktablarida o'quv dasturi hamda darsliklar joriy qildi.

<sup>14</sup>M.Abdurashidxonov. Adibus-soniy .www.ziyouz.com kutubxona.1-bet



Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibus soniy” o‘quv darslik bo‘lib, unda pand-nasihat mazmunidagi maqolalarni kirtiish bilan birga **Fanniy darslar** nomi bilan bir qancha dunyoviy bilimlarni ham o‘qitiishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu borada Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibus-soniy” darsligidagi “Ilm” mazusidagi hukoya bolalarni ilm olishning afzalligi yuzasidan to‘xtaladi:

*“Ilm – bilmagan narsalarini bilganlardan o‘rganmoqdir. Odam bolasi tug‘ilgan zamonda hech narsani bilmas, hattoki, so‘zlamog, yozmog, yaxshini – yomondan, oqni qoradan ayirmak kabi eng kerakli narsalardan mahrumli holda dunyoga kelur. So‘ng oz-oz organmog ila har narsani bilur. Otalarimiz, onalarimiz, ulug‘larimiz va muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalariizni o‘rgatmagan bo‘salar edi, hozrda biz ham hech narsani bilmas edik. Shuning uchun odam bolalariga ziyoda lozim bo‘lgan narsa - bilmaganlarini bilganlardan so‘rab va oq‘ub o‘rganmak, ya‘ni ilm degan aziz va foydali nasani qo‘lga olmak uchun harakat qilmoqdadir. Ilm- odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzaatl qilur. Oxiratda saodatli va sharofatli qilur.”*

Muallif “Ilm” hikoyasidan so‘ng insonni fazilatlariga to‘xtaladi. “Odob” hikoyasida bir rivoyatni keltiradi: “*Br kishi Luqmoni hakimdan : “Odobni kimdan o‘rgandingiz?” - deb so‘ramish. Luqmoni hakim javob beribdi: “Odobni odobsizdan o‘rgandim”, -deb javob bermishlar. Yk kishi yana so‘ramishki: “Odobni odobsizlardan qanday o‘rgandingiz? ”*

*Luqmoni hakim javob bermishlarki: “doim kishilarning qilgan ishlariga va so‘zlagan so‘zlarga diqqat ila qarab yurdim. Kimdan yomon so‘z eshitsav, ul so‘zni hech bir so‘ylamadim, kimdagi bir yomon ish ko‘rsam, ul ishni hech bir qilmadim, shuning ila odobli bo‘ldim”.*<sup>15</sup>

Ko‘rinib turibdiki, **“Adibus soniy”** darslik kitob bo‘lib unda ham tarbiyaviy hamda ta‘limiy darslardan tashkil topgan.

Makur darslik kitobda insonning fazilatleri yuzasidan ham to‘xtalib o‘tadi. Bu orqali bolalarning yaxshi xulq atvorga ega bo‘lishi keraklig xususida bayon qilinadi. Bu borada **“Lofchi”**, **“Ikki yo‘ldosh”**, **“To‘g‘ri javob”**, **“Pand”** hikoyalarini ko‘rishimiz mumkin. **“Ikki yo‘ldosh”** hikoyasida do‘stning sadoqatli bo‘lmog‘i kerakligiga urg‘u qaratadi. Ya‘ni hikoyani to‘liq syujetini ko‘rib o‘tsak: *“Ikki kishi do‘st va yo‘ldosh bo‘lib, safarga chiqibdilar. Yo‘lda bir ayiq chiqib, ikkisiga yugurib hujum qildi. Bularning biri yosh va chaqqon edi. Shu sababli tezlik ila qochub, bir yerga berkindi. Ammo ikkinchisi o‘zining keksaligi va kuchsizligidan qochaolmay qoldi. Nachor, ozini bir yerga tashlab, o‘likka o‘xshab qimirlamay yotdi. Ayiq kelub, buni iskab-iskab, o‘luk gumon qilib, zarar yetkurmey tashlab ketdi.*

*Ayiq ketgandan so‘ng yo‘ldosh berkingan yeridan chiqub keldi va kulib aytdiki: “Ey, yo‘ldosh, qulog‘ingga ayiq nima deb shivirladi? Yo‘l dosh javob berdi: “Ayiq*

<sup>15</sup> M.Abdurashidxonov. Adibus-soniy. [www.ziyouz.com.kutubxona](http://www.ziyouz.com/kutubxona), 2-bet.

*qulog 'imga, bunday ojizlik vaqtida seni tashlab ketadurg'on kishiga bundan so'ng aslo yo'ldosh bo'lma, deb shivirladi".*

Fanniy darslarni tahlil qiladigan bo'lsak, tabiatda uchratdiga hodisalar to'g'risidan to'liq ma'lumot berishga harakat qilingan.

**“Havo”, “Bulut”** mavzularini tahlil qilganimizda muallif o'quvchiga bu jismlarni tasnifiga urg'u qaratadi. Bunda havo yer yuzida qoplab olganini, havon fizik xususiyatlarini, yani rangsiz, tiniq, yumshoq bir jism ekaligni bayon qiladi. Agar havoni mavjudligini bilishni xohlasa, yelpig'ich bilan o'zini yelpisa yuziga urilishi mumkinligini his qilinishi tahlil qilinadi. Yer yuzida barcha jonzotlar uchun havoni juda muhim hisoblaydi.

Havosiz nafas olish mumkin emasligi, havoning inson salomatligi uchun o'ta muhimligi bayon qilinadi.

Muallif havoning foydali tomonlarini quyidagich abayon qilib tushuntirishga harakat qilinadi: *“Havosiz nafasni ichig'a olmoq mumkin emasdur. Nafs olg'onimizda ichimizg'a havo kirar. Foydalari o'pka orasidan borib, qong'a qo'shilur. Foydasizlari nafasni qo'yg'onimizdatashqari chiqib ketadur. Bundan ma'lum bo'ladi, biz doimo havo yutib turamiz. Agarda bir-ikki minut havosiz qolsak, nafas olmasdan bo'g'ilub o'lamiz. Bir biz emas, boshqa hayvonlar ham shunday va inson va hayvonlarning ichlairdan chiqg'on havolar zaharlanub, ikkinchi yutishga yaramay qolurlar. Bular esa o'lanlar va daraxtlar yutub, tiriklik qilurlar”,* deya o'quvchiga ma'lumot beradi. Mana shunday fanniy darslarda **“Bulut”** haqidagi ma'lumotlarni ko'rib tahlil qilishimiz mumkin.

*“Bir qozong'a suv tol'atib ostidan olov yoqilsa, bir oz isigandan so'ng ul suvdan bug' chiqa boshlaydur. Agar olovni hadeb yoqilaversa, suv qynab-qaynab ozaya boshlar. Oxirida suvning hammasi bug' bo'lib chiqub ktub, qozon qurub qolar. Bundan ma'lum bo'lurki, suv isig'on sari bug' bo'lib osmong'a ko'tarilar ekan. Yer yuzidagi dengizlar, ko'llar va daryolarni quyosh isitg'an sari, ondagi suvlar bug' bo'lib, osmong'a chiqa boshlaydur. Kuz va qish kunlarida ertalab suv bo'ylarida turib diqqat qilgan kishi suvdan doimo bug' chiqib turg'anlig'ini ko'p yaxshi bilardur. Mana shul suvlardan paydo bo'lg'on bug'lar yeridan bir necha sojin yuqorig'a ko'tarilg'ondan so'ngra bir-birlarig'a qo'shib qalinlashurlar. Shamol kuchi ila har tarafg'a yurib, harakat qilurlar. Quyosh,oy va yulduzlarning oldinlarini to'sib ko'k yuzini qoraytururlar. Biz shul bug' yig'inlarini bulut deb ataymiz”,* deya ta'rif beradi.

Munavvarqori Abdurashidovning **“Adibus soniy”** asari yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, bunda bolalarni dunyoqarashini shakllanib borishida va dunyoviy bilimlarga ega bo'lishida bir qator ibratli, pand-nasihat mavzusidagi hamda dunyoviy bilimlarni (fanniy darslar) aks ettiruvchi ilk darslik sifatida jori qilingani ko'rishimiz mumkin.

O'zbek bolalar adabiyotida XX asrlarning II yarmidan boshlab adabiy ertak janri rivojlandi. Bu borada Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" singari adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan, shakl va mazmun jihatdan puxta badiiy asarlar sirasiga kiradi. Jahon adabiyoti tahlil qilsak, hayvonlar aks etgan she'rlar orqali voqelikni bayon qilish ommalshdi. Misol tariqasida jahon adabiyoti namoyandasi A.S. Pushkin hamda I.A. Kirilovning she'riy asarlarini va masallarini misol keltirish mumkin.

**I.A. Kirilovning “Ninachi va Chumoli” masali**

Ninachi sho'x kuylab chakdi soz  
 Sayllarda o'tdi go'zal yoz,  
 Tamoshadan bo'shay demadi,  
 Qish g'amini sira yenadi,  
 Shunday... bosib keldi qish,  
 Ulgurmadi qoldi ko'p yumush,  
 Dalalar bo'sh endi yo'llar jim  
 Izg'irinda yo'qlamas hech kim,  
 Har barg soyasida sayl yo'q  
 Uy izlashga darmon, mayl yo'q,  
 Kunlar sovuq boshlandi ochlik,  
 Ninachini bosdi muhtojlik,  
 Och qoringa qo'shiq na hojat,  
 Ninachi ham sezdi falokat,  
 Vahm tushdi shirin joniga  
 Vahm tushdi shirin joniga  
 Chumolining keldi yoniga  
 Yomon kunga qo'yma o'rtoqjon.

Toki yig'ib olayn darmon,  
 Yoz kelguncha meni och qo'yma,  
 Ayozlarda yalong 'och qo'yma  
 “Hayron bo'ldim, nega ruhing bo'sh  
 Ishlabmiding yoz chog'ida, xo'sh?”  
 - Deb so'radi undan Chumoli,  
 “Vaqt so'radi undan Chumoli,  
 “Vaqt bormi-di der ish ilg'ali,  
 Maysazorda men chalib surnay,  
 Taralla-yu yalla har nafas,  
 Hayolimga qish kelgan emas”  
 “Hali shunday degin?”  
 “Ha shunday, Qo'shiq aytib o'tdim yoz bo'yi  
 Qo'shiq aytib ajab bo'libdi  
 Endi o'yin tushmoq qolipdi”.

Bu borada o'zbek adabiyotida o'zbek bolalar she'riyati ham ancha yuksalib, uning mavzu doirasi kengaydi. O'zbek bolalar yozuvchilarining safi kengaydi, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tolib Yo'ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov va boshqa qalamkashlar kirib keldi.

Uyg'un, Mirtemir, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Shuhrat, Mirzakalon Ismoilii, Mirkarim Osim singari kattalar adabiyoti vakillari ham bolalarga atab asarlar yaratdilar. Quddus Muhammadiyning besh kitobdan iborat “Tabiat alifbosi” yosh kitobxonlarni ona tabiatga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga mehrmuhabbat ruhida tarbiyalovchi, quvnoq kulgi bilan yo'g'rilgan, mavzular rangbarangligi va tasvirning mukammalligi bilan e'tiborga sazovor. Adabiyot namoyondalaridan G'afur G'ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar”, Nazir Safarovning “Ko'rgan kechirganlarim” qissalari bolalar adabiyotining rivojiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o'limi” asarlari ham sara asarlar qatoridan o'rin olgan. Bular ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilindi. Hakim Nazirning “So'nmas chaqmoqlar”, “Yonar daryo”, “Kichkintoy” qissalari, “Lochin qanotlari” romani davrning dolzarb muammolarini qamrab olishi, badiiy tasvirning o'ziga xosligi bilan e'tibor qozondi. Ayniqsa, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Rauf Tolipov, Qambar Utayev, Hamza Imonberdiyev va boshqa ijodkorlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovor bo'ldi. Bolalar adabiyotida badiiylik bilan bir qatorda ma'rifiylik tushunchalari ham

yetakchi o'rin tutadi. Bolalar adabiyoti namunalari asosan yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Barcha davrlarda bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Biroq Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sofbadiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko'zga tashlanadi.

Jumladan, XX asr boshlarida o'zbek bolalar adabiyotida ko'proq ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilsa, 30 - yillar bolalar adabiyotida realistik adabiyot tamoyillari ustuvor, 50-60- yillar bolalar adabiyotida sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi. 80-yillar bolalar adabiyotida psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida uni yosh bola tarzida emas, hayotga toboraj o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi aks ettiriladi. O'zbek Bolalar adabiyoti taraqqiyotida 90- yildar yangilanish davri bo'ldi. Istiqloq sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta'sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o'zbek qiyofasi tasviri yetakchi o'rin egallay boshladi. Bolalar adabiyotining o'ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, XX asr boshlari bolalar adabiyoti namunalari ko'proq ijodkorning faolligi, qahramon tasviri emas, targ'ibiy tashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib tursa, XX asr 30-yillar bolalar adabiyotida ko'proq xalq og'zaki ijodiga murojaat qilingan, bu davrda yaratilgan asarlarda ham hali faol qahramon obrazi deyarli yo'q edi. XX asr 50-60- yillar bolalar adabiyoti namunalari bevosita yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o'rin tutish ajralib turadi.

XX asr 70-80- yillar bolalar adabiyoti namunalaridan esa tobora hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydigan, balandparvoz, ritorik ta'riflardan ko'ra tanqidiy nigohi o'tkirroq yosh qahramon qiyofasi gavdalana boshladi, shu davrda o'zbek bolalar adabiyotiga ilk bora bolalarning o'ziga xos, endigina uyg'onib kelayotgan pok muhabbati kirib keldi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng adabiyotida bu borada yangi qadam tashlandi, o'zbek bolasi o'zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug' ajdodlarga munosib bo'lish ruhidagi, tom ma'nodagi vatanparvarlik g'oyasi ustuvor asarlarni o'qitish orqali ularni o'z milliy madabiyati va tarizini mukammal bilish baxtiga musharraf bo'ldi.

### **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Bolalarga yoshlikdan badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirishda bir qator metodlardan foydalanish juda samarali ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ilmiy maqola yozish jarayonida biz quyidagi metodlardan foydalanishga erishdik:

1. Hikoya qilib berish metodi;
2. Yod olish metodi; (tarbiyalanuvchini yosh xususiyatlarini inobatga olish orqali)

3. Namoyish metodi; (ertak va ibratli hikoyalarni sahna ko'rinish orqali namoyish etish orqali)
4. Kuzatish metodi; (Mashq va o'rgatish metodlari asosida)
5. Tarbiya vositalari(dars jarayonida turli badiiy adabiyot syujet va obrazlarga chizilgan rasmlar orqali);
6. Kutiladigan natija metodi; ( Yutuqlar va kamchliklar bartaraf etiladi.)

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari haqida gap ketganida, o'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadiga qaratilgan birgalikdagi faoliyat jarayoni bo'lib, bu jarayon o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshirdigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayoni **uchta asosiy vazifani** hal etishga yo'naltirildi: Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jarayonlardir.

**1.O'qitish jarayonining ta'limiy vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma,malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishni ifodalaydi. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarga adabiyot namunalarini **hikoya qilib berish, o'qib berilgan asararni sahnalashtirish**, kichk hajmdagi **she'rlarni yoq** olib ifodali o'qishga erish juda muhim sanaladi..

**2.O'qitishning tarbiyaviy vazifasi ta'lim jarayonida** shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Bu borada, ya'ni tarbiyalashda, badiiy adabiyot namunalaridagi obrazlarni o'rnatqilib ko'rsatish muhim sanaladi.Asar obrazlarining ijobiy fazilatlarini o'zlarida singdiradi, salbiy obrazlarga o'zlarining munosabatlarini bildirib boradi.

**3.O'qitishning rivojlantiruvchi vazifasi** o'qituvchi nutqining shakllantirish, fikrlashi, shaxsning sensori va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi. Bu jarayonda bolalar badiiy adabiyot namunalaridagi bayon qilingan voqelikka nisbatan tarbiyalanuvchining fikrlash qobiliyati o'zgaradi, obrazlarni harakterini tahlil qiladi, salbiy va ijobiy qahramonlarni qiyoslaydi, fikrlash qobiliyati yanada shakllanib boradi. <sup>16</sup>

Didaktik talablarga har bir tashkil qilingan dars vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmuni optimallashtirish, idrok etish yangi texnologiyalarni kiritish, turli xildagi shakl, metodlar va vositalardan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini

<sup>16</sup> B.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.2017,65-bet.

shakllantirishga ijodiy yondashib, jamoviy faoliyat usullari bilan birga bolalarni mustaqil faoliyatlarni turli shakllaridan foydalanish o'ta muhim sanaladi.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari bolalarni ma'naviy-axloqiy sifatlari, e'tiqoti hamda dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ularning ongli, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirib borishda shaxsning ongini shakllantirish metodlardan quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.: **Hikoya qilib berish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat, nasihat. ko'rsatmalilik, munozara va namuna qilib ko'rsatish metodlaridir. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnijiga turlicha yondashuvlardan iborat. Didaktik tadqiqotlarni tahlil qilinganida shuni ko'rsatadiki, ta'lim berish jarayonida turlicha yondashishni taqoza qiladi.**

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot ishini ochib berishda amaliy mashg'ulotlarda bolalarga badiiy adabiyot namunalari bilan tanshtirishda bolalar qanday asarlarga qiziqishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

Bolalarni qiziqishlarini tahlil qilishda badiiy adabiyotlarni turlarga va ular asosida janrlarga bo'lib tahlil qilindi.

Bolalarga badiiy adabiyot namunalariidan ertaklarni hikoya qilib berildi. Hikoya qilib berish metodidan foydalanilganida bolalar katta qiziqish bilan tinglaydilar.

Mazkur ilmiy maqolani mazmuni ochib berishda bolalarning yoshiga mos keladigan badiiy adabiyot namunalari: **“Egri va To'g'ri”**, **“Oqsoq laylak”** nomli ertak, A.Navoiyning **“Xayrat-ul abror”** asaridagi maqolalaridan joy olgan **“Shoh qahri va adolat”**, **“Durroj va she'r” kabi asarlar** hikoya qilib berish alohida ahamiyatga ega.

Badiiy asarlarni hikoya qilib berish orqali bolalarning odob-axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, asar qahramonlarining jasoratiga taqliq qilishlari orqal bir qator didaktik xususiatlarni rivojlanishiga turki bo'ldi. Bolalarda do'stlik, to'g'rilik, samimiylik, ziyraklik, mehribonlik, adolatlilik kabi fazilatlar shakllanishiga turki bo'ldi.

Kuzatish metodidan foydalanganimizda, **“Egri va To'g'ri”** ertagi orqali do'stlik va to'g'riso'zlik kabi fazilatlar shakllanishiga, **“Oqsoq laylak”** ertagi orqali esa bolalarni hayvonlarga mehribonlik, mehnatkashlik va sahiylik kabi fazilatlarini shakllanishiga turki bo'ldi.

**Hikoya qilib berish metodi bevosita suhbat metodi bilan uyg'unlikda olib borildi**, shu bilan birga ta'lim vositalaridan kerakli o'rinlarda foydalanildi.

Bolalar bilan suhbat olib borilganida ertak ularga juda yoqqanini bayon qildilar. Ular tahlil qilingan ertaklarga o'z munosabatlarini bildirdilar. Laylakka mehribon bo'lish kerakligi, birovning narsasini so'ramasdan olmaslik kerakligini, tog'ri so'z va do'stlariga doim sadoqatli bo'lishligi kerakligini bayon qildilar.

Bolalar ilk maktabga qadam qo‘ygan vaqtlarida umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida **namoyish qilish metodidan** foydalangan holda rus xalq ertaklaridan “**Sholg‘om**” ertagi sahnalashiriladi. Bunda bolalar ertakda keltirilgan obrazlarni sahnada namoyish qilib beradilar. Mazkur ertak orqali tadbirli bo‘lish va jamoaning kuchi o‘ta muhim ekanini bilib oldilar.

Kuzatish va suhbat qilish metodi asosida bolalarning 3 guruhga bo‘lingan holda badiiy adabiyot namunalari hikoya qilib berish orqali bolalarda aytib berilayotgan voqealarga befarq emasligini, ular voqealardagi obrazlarni ijobiy tomonlariga og‘ishishi, suhbat jarayonida nutqini rivojlanishi, bir qator xalq maqollari va rivoyatlari yod olinganida zehni charxlanishi va umuman shaxsning ongi, idroki va axloqiy qarashlarida rivojlanish yuzaga kelgani kuzatildi.

Bolalarga bolalar shoiri Qutrat Xikmat, Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevning bolalarga atalgan she‘rlarini bolalar yod oldiriladi. Bu asosida bolalar tabiatni sevish, vatanparvarlik, do‘stlik, mehribonlik, tog ‘ri so‘zlik kabi fazilatlar shakllanishiga alohida turki bo‘ldi. Shu bilan birga maqol va she‘rlarni yodlash orqali bolalarning nutq **motorikasi** shakllanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblangan maqollari yoq oldirishda vatanparvarlik, do‘stlik, samimiylik kabi mavzuga tizimiga alohida yondashsh orqali bolalarda eslab qolish va ifodali bayon qilish qobiliyatlarini shakllantirishga turtki berildi.

Badiiy adabiyotni bolalarga ta‘sirini aniqlash maqsadida makabgacha yoshdagi bolalarga badiiy adabiyot bilan tanishtirshda ish jarayonida ularni 3 guruhga bo‘lib olindi:

**1-guruh** - kichkintoylarga (2-4 yoshli bolalar) asosan ertaklar hikoya qilib berish metodidan foydalanildi. Buda bolalarda axloqiy fazilatlar hamda ta‘limiy jihatdan bilish, ongi rivojlanishi hamda nutqini ravonligi shakllanishiga olib keldi. Bu guruhga asosan o‘zbek xalq ertaklardan “**Oqsoq laylak**” va “**Egri va To‘g‘ri**”, “**Ur to‘qmoq**” o‘zbek xalq ertaklari hikoya qilib berildi.

Bunda mazkur tanlangan adabiyotlar hikoya qilib berishda adabiyot namunalari bolalar yoshiga mos qelishiga alohida e‘tibor qaratildi.

**2-guruh** – o‘rta yoshdagi bolalarni qamrab olindi. Bunda 4 va 5 yoshgach bo‘lgan bolalarni qamrab olindi. Bu guruhda bolalarga do‘stlik, yaxshi xulq, ota-onaga hurmat va vatanparvarlik mavzusidagi maqollar, tarixiy rivoyatlar (“**Shiroq**” va “**To‘maris**”), xalq dostonlaridan (“**Alpomish**” dostonining qisqa sujeti) oqib berish metodidan foydalanildi. Shu bilan birga va kichik hajimdagi bolalar shoirlaridan Quddus Muhammadiyning bolalarga atalgan “**Qanotli do‘stlar**” to‘plamidan olingan she‘rlarni yod olishga tavsiya qilindi.

Yod olish metodida maqol va she‘rlarni mazmuni va g‘oyasiga alohida e‘tibor ota-onaga hurmat, do‘stlik, yaxshilik, saxiylik, vatanparvarlik mavzulari



asosida tavsiya qilindi. Bunda bolalarning zehni va dunyoqarashi shu bilan birga nutqining shakllanishiga hamda bilib olish ko'nikmasini yanada mustahkamlanishiga erishildi.

**3-guruh-** katta yoshdagi (5-6 yoshli bolalar )guruhlarini qamrab olindi. Bunda bolalarga hikoya qilib berish va namoyish qilish metodlari asosida adabiyot namunalariidan A.Navoiyning **“Xayrat-ul abror”** asaridagi maqolotlaridan joy olgan **“Durroj va she‘r” maqoloti** hikoya qilib berildi. Xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan maqollardan do‘stlik, ota-onaga hurmat fazilatlarini shakllanganiga amin bo‘ldik.

Bunda bolalar A.Navoiyning **“Shoh qahri va adolat”** hikoyasi hamda rus xalqning eng taniqli **“Sholg‘om”** ertagi qahramonlarini xarakterini o‘zlarida mujassamlashtirgan holda sahnada ko‘rsatib berishga ham erishdilar. Namoyish qilish metodi orqali bolalarning dunyoqarashi, ongi, ularning axloqiy tarbiyasi shakllanishiga erishildi. Bolalar o‘z iqtidorlarini sahnada namoyish qilishga harakat qildilar. Bunda rus xalqining **“Sholg‘om”** nomli ertagini namoyish qilish bolalar uchun juda qiziqarli bo‘ldi. Bolalar ertak obrazlarini xarakterlari asosida jamoa bo‘lib ishlah doimo foydali ekanligini tushunib oldilar. **“Kuch-birlikda”** xalq maqoli asosida faol bo‘lish juda muhimligini bilib oldilar.

Namoyish qilish metodi orqali bolalar asardagi vaziyatlarni namoyish qilib berishga erishildi. Bolalarning qobiliyatlarini yanada shakllantirishda namoyish qilib berish metodining alohida afzalliklari mavjudligini xis qildilar.

Ma‘lumki, yurtimizda ta‘lim jarayoniga alohida yondashgan holda e‘tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim vositalarini talab darajada yo‘lga qo‘yilganligi, bolalarni dunyoqarashni har tomonlama rivojlanishiga turki bo‘lmoqda.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun chop etilgan darsliklar bevosita bolalarning yosh xususiyatlariga tayangan holda ranglar asosida nomlashga erishilgan. Mazkur yondashuv o‘zbek ma‘rifatpar shoir va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziyning o‘qishda metodik yondashuvi asosida tuzilgan.

1. **Qizil gul** - kichik guruh bolalari uchun ta‘limiy, rangli-bezakli badiiy asarlar to‘plami.
2. **Oq gul** - o‘rta guruh bolalari uchun ta‘limiy, rangli-bezakli badiiy asarlar to‘plami.
3. **Sariq gul** – katta guruh bolalari uchun ta‘limiy, rangli-bezakli badiiy asarlar to‘plami.
4. **Moviy gul-** maktabga tayyorlov guruh bolalari uchun ta‘limiy, rangli-bezakli badiiy asarlar to‘plami.

Makzur darsliklardagi badiiy asarlar bolalarning yosh xususiyatiga ko'ra tanlanishga harakat qilingan. Shu bilan birga ushbu darsliklarda badiiy adabiyotning bir qator janrlari asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, axloq-odob, ota-onalar mehribon bo'lish, tabiatga samimiylik bilan yondhish, do'stlik, yaxshilik, tog'riso'zlik, qushlar haqida ma'lumotlarni o'zlashtirib olish yuzasidan bir qator she'rlar, rivoyat va afsonalar, hikoya, ertak, maqollar, topishmoqlar o'rin olgan.

Badiiy adabiyotlarni bolalarga tanishtirishda pedagogik metodlar asosida tanishtirib borish bolalar ong va tafakkuri, bilimlarni o'zlashtirishi, ijobiy fazilatlarni egalashlari, adabiyot namunalariidagi g'oya va mazmun asosida ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini yoshlikdan yetarli darajada shakllanishida ahamiyati juda katta bo'ladi. Bu orqali ularning qobiliyatlari yanada rivojlanishiga olib kelindi.

Bolalarga didaktik ta'lim berishda bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning ijodini tahlil qilganimizda shoir juda sinchkov, kuzatuvchan, bolalarni sevuvchi ijodkor hisoblanadi. Uning bolalarga atab yozgan she'rlari bolalarga xos bo'lgan quvnoq yumor, samimiylik, hazil asosida bola tabiatiga mos holda yondashadi.

She'rlarda bolalarning ichki olami aks ettiriladi. Xususan, **“Mayna”** she'rida matnlar juda sodda bayon qilinadi.

Satang qushcha – mayna qush,  
Chorbog' imda sayrar xush,  
Parlari qora baxmal  
Bergandek tillo zarhal  
Oshaman der bulbuldan  
Mayna nom olgan shunda

**“Qaldirgoch”** she'ri ham bolalarga xos tarzda hajman qisqa yozilgan:

Odam do'sti qaldirg'och  
Ko'zlari qilar qiyg'och,  
Bola ochar ko'klam-yoz,  
Ini loy oy nusxa soz.

**“Kaptarim deydi “g'uv-g'uv”** she'rida bolalari o'qib o'rgansishga chorlaydi:

Kaptarim deydi “g'uv-g'uv”  
“G'uv-g'uv”lab nima deydi.  
Kaptarim so'zi bu  
Kaptarim so'zi qiziq.

G'ub-g'uv degani o'quv  
O'quvha kerak uquv  
Kaptar maktabi yo'g'u,  
"G'uv-g'uv" so'zi maktabi,  
Daftar, qalam, kitobi  
Uni o'qib der g'uv-g'uv  
G'uv-g'uv"ning ma'nosi shu

Ko'rinib turibdiki, bolalarning har tomonlama rivojlanishida ularning badiiy adabiyotga qiziqtirib borish juda muhimdir. Badiiy adabiyot insonga hayot haqiqatlarini tasvirlaydi va o'rgatadi.

### **TADQIQOT NATIJASI.**

Bolalarni yoshlikdan badiiy adabiyot bilan tanishtirish va ularda ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik xususiyatlarini ochib berish jarayonida bolalarga adabiyot namunalrini tematikasiga (mavzular yuzasidan) alohida yondashgan holda hikoya qilib berildi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol va bolalar adabiyoti shoirlarini she'rlari o'qib berish orqali asarlardagi etirlgan maqolalarning bolalarga ijobiy ta'siri tahlil qilindi. Bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Alisher Navoiyning "Xayrat-ul abror" asaridan joy olgan (27-bo'lim) "**Shoh qahri va adolat**" maqoloti va rus xalqining "**Sholg'om**" mavzusidagi ertagi sahnalashtirildi.


Jarayonni tashkil qilishda bolalarning yosh xususiyatlarini va ularning qiziqishlariga, unduvidualligiga e'tibor qaratildi.

Bu ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini namoyon qildi. Bu kabi usullarning ta'lim jarayonida qo'llanishi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga, bolalar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlar qaror topishiga, bolalarning o'quv mashg'ulotlarini puxta egallashlarini, ulardagi mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Pedagog va tarbiyachilar ta'limda ta'lim metodlaridan foydalanish, zamonaviy to'g'ri yo'nalganni ko'rsatadi. Bu borada metodlardan samarali foydalanganlik darajalarini aniqlab chiqish muhim sanaladi.

Mavzu bo'yicha tadqiqotlar natijasda bir qator metodlarning bolalarning dunyoqarashini rivojlanishida muhim rol o'ynadi.


Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy yondashgan holda asarlarning tematikasi (mavzusi)ga ko'ra qiyosiy tahlil qilib chiqdik.

### **1-tahlil. Adabiyot namunalarining mavzular bo'yicha tahlili.**



Bolalarga badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayonida mavzular bo'yicha tahlil qilinganida vatanparvarlik mavzusidagi **“To‘maris”** va **“Shiroq”** rivoyati asosida vatanparvarlik tuyg‘usi, **“Ergi va To‘g‘ri”** ertagi asosida do‘stlik, **“Oqsoq laylak”** ertagi asosida samimiylik va mehribonlik fazilatlarini shakllanishiga ko‘mak berganini kuzatildi.


### 2-tahlil. Bolalarga adabiyot namunalarini qaysi usul (metod)da yetgazishning samaradorligini tahlil natijasi.



Bolalarni badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirishda pedagogik yondashish va metodlarning ham muhim ahamiyati mavjud. O‘quvchilarning adabiyot namunalaridagi g‘oya va mazmuni tushunishida ko‘rgazmalilik metodi, og‘zaki eshitib hikoya qilish va sahnada namoyish qilish metodlarining samarali ekanligini tadqiqot natijasida kuzatdir. Bunga ko‘ra, **“Ur togmoq”** ertagiga ishlangan rasmlar asosida (ko‘rgazmalilik tamoyili asosida) hikoya qilib berish samarali deb topildi.

Bolalarning xotirasi shakllantirish va tabiyatga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish maqsadida **Q.Muhammadiyning “Qanotli do'stlar”** she'riy toplamidan she'rlar bolalar tomonidan yod olindi. Mavzular bo'yicha ko'rgazmalilik metodi, ogzaki hikoya qilib berish metodi va sahna orqali namoyish qilish metodlari samaradorli aniqlandi.

### **3-tahlil. O'z-o'zini tahlil qilish va rasmlarni ifodalash orqali tahlil**



Bolalarga bir qator asarlar hikoya qilish, o'qib berish, namoyish qilish va yod oldirish metodlari asosida tanshtirlganida ularning yosh xususiyatlariga ko'ra, kichik yoshdag bolalar guruhiga ertaklar, o'rta guruhga rivoyat va maqollar, katta guruhlarga esa rivoyat, hikoya va she'rlarning ta'siri o'ziga xosligi aniqlandi. Mazkur tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirib borish ularning ta'lim-tarbiya olishiga, fikrlashiga, ong va tafakkurini yanada shakllanishida katta ahamiyatga ega.


Bu borada bevosita ota-onalar bilan ham hamkorlikni faollashtirish zaruriyati tug'iladi. Bolalarni rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bo'g'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishiga ko'mak beradi.

Bolaning kompetensiyalari rivojlanishning quyidagi sohalariga e'tibor qaratiladi;

- bolaning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayoning rivojlanishi; ijodiy rivojlanishi shular jumlasidandir.

Bolaning nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari borasida badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish o'ta muhimdir.

### **4-tahlil. Bolalarga adabiyot namunalrini tanishtirishda janr xususiyat bilan yosh xususiyatlariga mosligini tahlil qilsih.**



### TAKLIF VA TAVSIYALAR

Ma'lumki, jamiyat doimo rivojlanishda, bu borada yosh avlodni yoshlikdan o'qib o'rganishiga alohida e'tibor berilib kelinayotgani, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiya va innovatsion metodlarni jalb qilishini ta'lim oluvchilarni yanada bilim, ong tafakkurini rivojlanishiga ko'mak beradi.

Yurtimizda qadimdan bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirib borish, yoshi ulug' insonlar xalq og'zaki ijodi namunalarini hikoya qilib berishga alohida e'tibor qaratgan. Bolalar ma'lum yoshga kirganida kitoblar sovg'a qilganlar. Bunga sabab, albatta bolalar dunyoni, unda kechayotgan har qanday voqea-hodisani kitobdagi sarguzashtlar orqali bilib olganlar.

Mazkur tadqiqot jarayonida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirib borishda quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratisni tavsiya qilinadi:

- badiiy adabiyot namunalarini bolalarga tanishtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun maxsus badiiy adabiyot kitoblarida tarbiyaga oid bo'lgan pand-nasihat ruhidagi asarlarni ko'proq kiritishni tashkil qilish;
- maxsus kitoblardagi asar namunalari bolalarning yoshiga mos kelishini ta'minlash;
- maxsus kitoblar orqali katta va maktabga tayyorlov guruhlarida xorijiy tillarni o'rganishi borasida ikki tilli tarzda chop etilishi;
- maxsus kitoblarda asosan rasmlil va fikr mulohazali hikoya va she'r, maqol va masallarni kiritib borish;
- maxsus kitoblarda nafaqat milliy balki, xorij bolalar adabiyoti namunalarini kiritib borish;
- maxsus kitoblarda asar qahramonlarining rasmlari aks etishi o'ta muhim hisoblanadi.

Ma'limki, bolalar adabiyoti namunalarining miqdori anchagina, biroq maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun maxsus kitoblarni chop etilganiga qaramay, maxsus kitoblarda pand-nasixat ruhidagi badiiy adabiyot namunalarining kamligini kuzatishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini o'zbek va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borish o'ta dolzarb ekanligini ta'lim jarayonini o'zi ko'rsatib turibdi.

Zamonaviy texnologiya va vositalar juda keng tarqalgan bugungi kunda yoshlarni, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Xo'sh, butun mamlakat bo'ylab kitob mutolaasiga rag'batini oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Nima qilinsa yoshlar, bolalar kitob o'qishga jon-jahdi bilan intiladi?

Bu boradagi savollarga javob topishda albatta, bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirish va bolalarning dunyoqarashini yanada shakllantirish oila davrasida, ta'lim berish dargohlarda alohida e'tibor berib kelinmoqda. Biroq oilada ko'pincha otionalarning bo'sh vaqtlarini bo'lmasli, ta'lim dargohlarida esa badiiy adabiyot mashg'ulotlarining qisqa ekanligi ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, adabiyot hayot darsidir. Badiiy adabiyot hayot darsi hisoblanar ekan, bolalarni go'zal adabiyot namunalari bilan tanishtirib borish esa dunyoni anglashga va tushunishga o'rgatuvchi eng muhim omildir.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyening. 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" nomli PF-60 sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" dasturi. Toshkent, 2018 y
3. R.A.Mavlonova.N.Rahmonqulova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.2018.
4. B.Xodjayev. Umimiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017.
5. N.Karimova. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2013.
6. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, "Ma'naviyat",2002.
7. U.Dolimov. Turkistonda jadid maktablari.Toshkent. "Universitet",2006.
8. B.Qosimov,Sh.Rizayev. O'son Millat.Toshkent. "Sharq",1993.
- 9.M.Qoshga'riy. Devon-u log'otit tukr.Toshkent,1960.www.ziyouz.com kutubxonasi
10. A.Yugnakiy.Hibbat-ul haqoyq.1971. www.ziyouz.com kutubxonasi
- 11.Y.Xos Hojib. Qutadg'u bilig,Toshkent,1971.www.ziyouz.com kutubxonasi.
12. A.Navoiy .Hayrat-ul abror,Toshkent,1983. www.ziyouz.com kutubxonasi.
- 13.M.Abdurashidxonov.Adibus soniy. www.ziyouz.com kutubxonasi.

- 14..A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. Adibus soniy.1914. www.ziyouz.com kutubxonasi.
- 15.V.Q.Abdullayeva. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘i bilig” asarining til xususiyatlari, unda frazeologik iboralarni qo‘llanilishi tadqiqi. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS, [www.wordlyknowledge.uz,volume:3,Issue:1,2023,1-b](http://www.wordlyknowledge.uz,volume:3,Issue:1,2023,1-b).
16. Kuronovna, A. V. (2024). THE USE OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN ANCIENT WRITTEN SOURCES. Science and Innovation, 3(3), 19-25.
- 17.Qizil gul. “Standard poligraph books”,Toshkent,2021.
- 18.Oq gul. “Standard poligraph books”,Toshkent,2021.
- 19.Sariq gul.”Standard poligraph books”,Toshkent,2021.
- 20.Moviy gul.”Standard poligraph books”,Toshkent,2021.
- 21.Bolalar adabiyoti. O‘zbek bolalar va o‘smirlarining adabiy-badiiy jurnali.

**Elektron ta‘li resurslari:**

1. www.odob.uz
- 2.www.pedagogika.uz.
- 3.www.ziyouz.uz.kutubxonasi.
- 4.[@bolalar adabiyoti](mailto:@bolalar_adabiyoti).
- 5.[@-mail:bolalar\\_kutubxona@xtv.uz](mailto:@-mail:bolalar_kutubxona@xtv.uz).